

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA TARIX FAKULTETI

“IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR” KAFEDRASI

M. K. Rashidova, J.Jo‘raqulov, Sh.Xazratov

“MA’NAVIYATSHUNOSLIK” FANIDAN

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI UCHUN

USLUBIY KO‘RSATMA

Toshkent – 2024

Mazkur uslubiy ko‘rsatma sirtqi ta‘lim talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda “Ma‘naviyatshunoslik” fanidan seminar mashg‘ulotini tayorlashda foydalanishi mumkin bo‘lgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta‘lim ishlari mavzulari, shuningdek, mavzulariga doir adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan

Tuzuvchi:

f.f.n, dots M.K.Rashidova, J.Jo‘raqulov, Sh.Xazratov

Taqrizchi:

N.Buranova - Renessans talim univeristeti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Filologiya va tarix fakulteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasining 2024-yil “23” oktabrdagi 6-sonli majlisida muhokama qilingan.

Uslubiy ko‘rsatma Renessans ta‘lim universiteti Kengashining 2024-yil “26” oktabrdagi 2-sonli qaroriga muvofiq o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

Kirish

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni puxta egallagan malakali kadrlar tayyorlash va ularni jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashdan iboratdir. Bugungi kunda ta'lim jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlar, qolaversa boshqa soha fanlarining ozuqa manbai hisoblangan ma'naviyatga zaruriyat kuchayib bormoqda. Ma'naviyatshunoslik fan o'laroq Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans qurishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, tafakkurini yaratuvchilik ruhida shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Ma'rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug'lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish, ma'rifatli bo'lish, insonlar turli sohalarda qiyinchilikka duch kelganda moddiy va ma'naviy jihatdan g'alaba qilishi uchun zarur. Bilimsiz, ma'rifatsiz kishi himoyasizdir. Ma'rifat keng ma'noda odamlarga bilim berish, ko'nikma va malaka hosil demakdir. U ma'naviyatni shakllantiruvchi, jamiyatning yaratuvchanlik, bunyodkorlik quvvatini oshiruvchi inson faoliyati sohasidir. Boshqacha aytganda, ma'rifat jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan inson faoliyatini qamrab oluvchi tushunchadir.

Bilimli, ma'rifatli kishilarning ko'payishi jamiyat boyligidir. Ma'naviyatni yuksaltirish ham ma'rifatga bog'liq. Milliy qadriyatlarning tarixini, kelajagini anglash ma'rifat orqali amalga oshadi.

Demokratik va huquqiy davlat barpo etish sari dadil qadamlar tashlayotgan, mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa, yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondoshish, ularni har tomonlama kamol topgan zamon kishisi

qilib tarbiyalash kabi ezgu vazifalar turibdi. Bu vazifalarni amalga oshirishda fanlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning ijobiy samarasi zamonaviy ta'lim jarayonida o'zining isbotini topgan.

Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng kup tarkalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik xamma vazifalarini amalga oshirish maksadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maksadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holag hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun tug'ri tanlash muammosini keltirib chikargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda akliy xujum, kichik guruhlarda ishlash, baxs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyixa, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro baxs-munozarada fikrlash asnosida, xamjihatlik bilan xal etishdir

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-surov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari: "Akliy xujum", "Bumerang", "G alereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloklangan kor" va x.k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil kilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshka farklar yuk.

3. Interfaol grafik organayzerlar: "Balik skeleta", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Kanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda

ifodalanishiga asoslaniladi. Interfaol ta'lim metodlarini kupincha turli shakllardagi ukuv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaktida kullanmovda.

Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat kiladi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada o'quv jarayonlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning bir qator metodlari o'rin olgan.

**Ma'naviyatshunoslik fanining predmeti. Ma'naviyat tushunchasi:
mohiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo'lish shakllari**

“Ma’naviyat” ko‘p qirrali tushuncha. U insonning zoxiriy va botiniy jihatlarini o‘zida qamrab oladi. Shu bois, uning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag‘ishlanib respublikamiz ziyolilari o‘rtasida qizg‘in munozaralar olib borilmoqda.

“Ma’naviyat” tushunchasiga ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarni keltirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlarda “Ma’naviyat” tushunchasi va uning tamoyillariga o‘ziga xos izoh va ta’riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab “Ma’naviyat” tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa ekanligidir.¹

Aslida ma’naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma’naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji- deyilganda uning ushbu xislati, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi. Shunday ekan, “ma’naviyat” tushunchasiga bir yo‘la mukammal ta’rif berish murakkab hisoblanadi.

Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch» asarida insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan o‘rin tutishligini uqtirib: «Ma’naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»² deb ta’riflagan edilar.

Barcha fanlarda bo‘lganidek, ma’naviyatning ham mustaqil predmeti mavjuddir. Uning predmeti inson va jamiyat ma’naviy hayoti, maqsadi esa komil inson – iymon etiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish va jamiyat ma’naviy salohiyatini rivojlantirishdir.

Odam ota – onadan tug‘iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi fazilatlarini, ya’ni ma’naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Insonning ma’naviy olami asosan ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lsa ham, u o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta’sir

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. –B.18-20.

²Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008.-B.19.

ko'rsatadi, uni belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, iymon, vijdon, xalollik, mehnatsevarlik, milliy va insoniy g'urur tuyg'usi, burch va mas'uliyatni his qilishi qanchalik kuchli va yuqori bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo'lishiga olib keladi.

Ma'naviyatni rivojlantirish mamlakatimiz va millatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ayniqsa asosiy vazifa darajasiga ko'tarilmoqda. Bu faqat mamlakatimizning ichki hayoti bilangina bog'liq bo'libgina qolmasdan, balki uning barqaror rivojlanishga tahdid solishga urinayotgan tashqi turli oqimlarning mavjudligi bilan ham bog'liqdir. Ularning ayniqsa hayot tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarimizning ongini zaharlash borasida olib borayotgan harakatlariga qarshi turaoladigan, erkin fikrlaydigan, fidoiy Vatanparvarlarni tarbiyalash ma'naviyatni yuksak darajada rivojlantirishini taqazo qilmoqda.

“Ma'naviyatshunoslik” ham boshqa fanlar kabi o'zining mustaqil tarkibiy qismlariga ega. Ular madaniyat, madaniy meros, mafkura, qadriyatlardir. Ma'naviyat va madaniyat bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ammo ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. Shuning bilan birga ular bir-birini to'ldirib turadilar. Madaniyat har doim ma'lum bir ma'naviyatning timsolini ifodalaydi. O'z navbatida ma'naviyat ham qaysidir narsa, belgi, tasvir, ramzlar moddiyligida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat shaxsning va jamiyatning insoniylashish darajasi, ya'ni har bir narsa va hodisalarga baxo berishda. Ta'sir ko'rsatishda insoniylik me'yorlaridan kelib chiqib yondashishidir.

Seminar mashg'uloti

Mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq

Mavzu : “Ma'naviyatshunoslik” fanining predmeti . Ma'naviyat tushunchasi: mohiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo'lish shakllari.

Reja:

1. Ma'naviyat deganda nimani tushunasiz?
2. I. Karimov “Ma'naviyat – insoniyat, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir” deganida nimalarni nazarda tutgan edi?
3. ‘Ma'naviyatshunoslik” fanini o'qitishdan asosiy maqsad nima?
4. Ma'naviyatni rivojlantirish hozirgi davrda davlat siyosatining ustivor yo'nalishi darajasiga ko'tarilish sabablari nimada deb bilasiz?

Izoh: Talabalar rejadagi savollarga mustaqil javob yozadilar va uni seminar mashg'ulotida og'zaki shaklda gapirib beradilar.

2-opshiriq

“Blits so‘rov” savollari:

1-guruhga:

1. Ma’naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
2. Ma’naviyat shaxs, millat, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega?

2-guruhga:


1. Ma’naviyatni rivojlantirish hozirgi davrda davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilish sabablari nimada deb bilasiz?
2. Ma’naviyat fani predmeti nimani o‘rgatadi?

3-guruhga:

1. Ma’naviyatshunoslikni boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi
2. Ma’naviyatshunoslik fanining vazifalarini nimalar tashkil qiladi?


3- topshiriq

“Klaster” metodidan foydalangan holda ma’naviyatning tarkibiy qismlarini aniqlang.




4- O‘quv topshiriq


“Daraxt” metodidan foydalangan holda ma’naviyatning tarkibiy qismlarini aniqlab yozing va ma’naviyatning tarkibiy qismi bo‘lgan axloq haqida o‘z bilimlaringizni bayon eting.



:



“Daraxt” metodidan foydalangan holda ma’naviyatning tarkibiy qismlarini aniqlab yozing va ma’naviyatning tarkibiy qismi bo‘lgan ma’rifat va madaniyat haqida o‘z bilimlaringizni bayon eting.



5-topshiriq.

Mustaqil ish.

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Shakli
1	Jamiyat, inson va ma’naviyat: moddiy va ma’naviy hayot mushtarakligi.	taqdimot yaratish, glossari tuzish,
2	O‘zlikni anglash, milliy o‘zlikni anglash tushunchalarining mazmun va mohiyati.	Referat (glossariy tuzish, test)
3	Ma’naviyat va o‘zlikni anglash.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
4	Bugungi kunda “Ma’naviyatshunoslik” faniga ehtiyoj.	Multimediali taqdimotlar yaratish

5	Taraqqiyotning o‘zbek modelida ma’naviyatning o‘rni.	taqdimot yaratish, glossari tuzish,
6	Ma’naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagimohiyati.	taqdimot yaratish, glossari tuzish,
7	Ma’naviyatni rivojlantirish davlatning ustuvor yo‘nalishi sifatida.	Referat (glossariy tuzish, test)
8	O‘zbekistonda ma’naviyat va ma’rifatni ko‘tarish, targ‘ib qilish.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)

Izoh: Talabalar mustaqil ta’lim mavzularini tayyorlash shakli bo‘yicha tayyorlaydilar.

Seminar mashg‘uloti

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar

1-topshiriq

Mavzu: Ma’naviyatning vujudga kelishi (genezisi) va rivojlanish bosqichlari.

Reja:

1. Ma'naviy meros - ma'naviyat rivojlanishining asosi ekanligi
2. Inson evolyusiyasida ma'naviy genezisning ahamiyati.
3. Ma'naviyatning jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni.
4. Qadimgi Sharqda ma'naviy tafakkur va dunyoqarashning shakllanish hamda takomil bosqichlari.

Izoh: Talabalar muammoni, uning kelib chiqish sabablari, oqibatlari va echimlarini yozadilar va uni og‘zaki asoslab beradilar.

2-topshiriq

«Aqliy hujum» usuli

Ma’naviyat deganda nimani tushunasiz?

Ma’naviyat nima? (Ma’naviyatning turli nuqtayi nazardan ta’riflari)

a) Ma’naviyat iqtidor, yaratuvchilik quvvati sifatida	“Ma’naviyat — Insonning, Xalqning, Jamiyatning, Davlatning kuch-qudratidir”.
b)Ma’naviyatning qudratini izohlovchi ta’rif	"Ma’naviyat — insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuch"

d) Ma'naviyatning ajdodlarimiz merosida aks etgan ramziy ta'rifi	Ma'naviyat — Haqiqat nurining inson qalbida aks etishidir.
e) Ma'naviy kamolotga jarayon sifatida yondoshuv ("O'zini anglab etgan Robbini anglab etadi" hadisiga muvofiq)	Ma'naviyat — o'zlikni anglashdir
f) Ma'naviyatning ilmiy ta'rifi (ma'naviyat—ma'rifat yo'llarining niqonuny xulosasi sifatida)	Ma'naviyat — inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik
g) Ma'naviyatga diniy nuqtayi nazardan berilgan ta'rif	Ma'naviyat — dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg'unligidir
h) Ma'naviyat fano va baqo nisbati sifatida	Ma'naviyat — baqoning fanoda zuhuri (namoyon bo'lishi)
i) Ma'naviyat — inson va jamiyat hayotining uch asosiy yo'nalishining biri sifatida	Ma'naviyat — insonning Haqqa (Borliq haqiqatiga) munosabati

3-topshiriq

“Sinkveyn” usuli

" Sinkveyn usuli fransuzcha so'z bo'lib "besh" degan ma'noni bildiradi. Bu usul qatorlar usuli bo'lib besh qatordan iborat. Har bir qatorga yozilgan so'zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma'noni o'ziga qamrab oladi.

1 -qator Mavzu bitta so'z bilan ifodalanadi.

2 - qator Ikkinchi so'z qo'shilib mavzu mazmuni kengaytiriladi.

3-qator Uchinchi so'z kiritilib voqelik ochib beriladi.

4-qator To'rtinchi so'z kiritilib voqelikka shaxsning munosabati bildiriladi.

5-qator Birta so'z bilan umumlashtiriladi.

Masalan:

1-qator Maqol.

2-qator Xalq maqollari.

3-qator Xalq tafakkurining qaymog'idir.

4-qator Inson nutqining jilosi.

5-qator Ibrat.

4- topshiriq

“Pres” usuli .

“Pres” usuli shaxsning nuqtayi nazarining, uning u yoki bu masalaga bo'lgan shaxsiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan. “PRES” usulini qo'lashda quyidagi algoritm asos qilib olinadi.

P - Nuqtai nazarinigizni bayon eting.

- R - Nuqtai nazaringizni qo‘llovchi va isbotlovchi dalillarni keltiring.
 E - Dalillarni asoslang va misollar keltiring.
 S - Nuqtai nazaringizni yakunlang.

Algoritimdan foydalanish usuli quyidagicha.

- P - Men ba’zi insonlardagi hasadgo‘ylikni yoqtirmayman.
 R - Dono xalqimiz uzoq yillik tarixiy tajribasidan kelib chiqib ta’kidlaydiki, “hasad qilib emas havas qilib yashash kerak”.
 E - Hasadgo‘y insonlaming qilgan ishlarini ko‘rsam, asabim buzilib, qalbim og‘riydi.
 S - Shuning uchun ham hasadgo‘y odamlami yomon ko‘raman.

Ushbu usul notiqalar tajribasida ko‘proq qo‘llaniladi, yani o‘z fikrini bayon etadi, unga dalillar topadi, misollar yordamida asoslaydi va yakunida o‘z fikrining haq ekanligini qayta takidlaydi.

Bu usulni qo‘llash talabalarda nutq, so‘zlash malakasini rivojlantirish, o‘z fikrini asoslab bera olish, murakkab muammolami hal qilishda turli nuqtayi nazardan yondashishni tarbiyalaydi. Ushbu usulni dars vaqtida 5-10 daqiqada qo‘llash samarali natija beradi. Bunda mavzu yuzasidan chiqarilgan xulosalami nuqtayi nazar sifatida belgilab, ‘ushbu algoritm yordamida uni asoslab, yakunlab topshiradilar.

5- topshiriq.

Qadimgi Sharqda ma’naviy tafakkur va dunyoqarashning shakllanish. Ushbu topshiriqda talabalar uchun mustaqil ishlashga mavzular beriladi.

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Bajarish shakli
1	Ma’naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagimohiyati.	Multimediali taqdimotlar yaratish
2	Mustaqil taraqqiyotning ma’naviy asoslari.	Referat (glossariy tuzish)
3	Ma’naviy muhit ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida.	Referat (glossariy tuzish)
4	Ma’naviyatning vujudga kelishi to‘g‘risidagi turli nazariyalar va qarashlar.	Esse yozish, multimediali taqdimot tayyorlash
5	Ma’naviyat tarixida mehnatning o‘rni.	Esse yozish, multimediali taqdimot tayyorlash
6	Ma’naviyatning vujudga kelish va dastlabki rivojlanish bosqichlari.	Esse yozish, multimediali taqdimot tayyorlash,

Izoh: Talabalar mustaqil ta’lim mavzularini tayyorlash shakli bo‘yicha tayyorlaydilar.

Seminar mashgʻuloti

Mavzu boʻyicha topshiriqlar

1-topshiriq.

**Mavzu: Manaviyat, madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari nisbati.
Maʼnaviyat va iqtisodiyot Maʼnaviyat va iqtisodiyot munosabati**

Reja :

1. Sivilizatsiya deganda nimani tushunchasiz? “
2. Jamiyatning rivojlanishida maʼnaviyat qanday oʻrin tutadi?
3. Maʼrifatparvarlar sivilizatsiyani akl va adolatga asoslangan jamiyat sifatida talqin qildilar.
4. Sharq va Gʻarb madaniyatining bir-biriga bogʻliqligi.

Izoh: Talabalar rejadagi savollarga mustaqil javob yozadilar va uni seminar mashgʻulotida ogʻzaki shaklda gapirib beradilar.

2- topshiriq

"Aqliy hujum " metodi

1. Mazkur metod muvvin mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qoʻllaniladigan metod sanalib, u mashgʻulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuntish, shuningdek, oʻz tasavvurlari va gʻoyalariidan ijobiy foydalanish borasida maʼlum koʻnikma hamda malakalarni hosil qilishga ragʻbatlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashgʻulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir nechta original yechimlarini topish imkoniyati tugʻiladi. "Aqliy hujum" metodi tanlab olingan mavzular doirasida maʼlum qadriyatlarini aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil boʻlgan gʻoyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi. Mashgʻulot jarayonida "Aqliy hujum" metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilardir: 1 Mashgʻulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash; ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir oʻquvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki gʻoyalar miqdori ragʻbatlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning ragʻbatlantirilishi navbatdagi - yangi fikr yoki gʻoyalarning tugʻilishiga olib keladi .

3. Har bir oʻquvchi oʻzining shaxsiy fikr yoki gʻoyalariiga asoslanishi hamda ularni oʻzgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (gʻoya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni oʻzgartirish ilmiy asoslangan fikr (gʻoya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4 Mashgʻulot jarayonida oʻquvchilarning har qanday faoliyatlarini standan talablar asosida nazorat qilish. ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yoʻl qoʻyilmaydi Agarda ularning fikr (gʻoya)larini baholanib boriladigan boʻlsa, oʻquvchilar oʻz diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qoʻllashdan koʻzlangan

asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim.

3- topshiriq.

sivilizatsiya- jamiyatniig moddiy va ma'naviy taraqqiyotda erishgan darajasini anglatadi.. FSMU texnologiyasi yordamida izohlab bering.

Savol	
(F) Fikringizni bayon yeting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	

4- topshiriq:

“BBB” usulidan foydalangan holda mavzu yuzasidan olgan bilimingizni aniqlang.

B Mavzu yuzasidan nimalarni bilardingiz?	B Mavzu yuzasidan nimalarni bilib oldingsiz?	B Mavzu yuzasidan yana nimalarni bilishni istaysiz?

5- topshiriq.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Tayyorlash shakli
1	Ma'naviy hayotda diniy va siyosiy mafkura ta'sirining kuchayishi.	Multimediali taqdimotlar yaratish
2	Iqtisodiyot, siyosat va ma'naviyat o'rtasidagi aloqadorlik.	Referat (glossariy tuzish, test)
3	Ma'naviyatning ijtimoiy turmushning barcha sohalariga ta'siri.	taqdimot yaratish, glossari tuzish,
4	Demokratiya tushunchasining mohiyati.	Multimediali taqdimotlar yaratish
5	Jamiyat hayotida urf-odatlar, millatlararo va dinlararo munosabatlarning o'rni.	Taqdimot yaratish,
6	Svilizatsiya va madaniyat tushunchalarining mazmun va mohiyati, ularning ma'naviyat bilan aloqadorligi.	Taqdimot yaratish, glossari tuzish
7	Ma'naviyat va madaniyat munosabatlari.	Taqdimot yaratish
8	Ommaviy madaniyat – hozirgi zamon sivilizatsiyasining ijtimoiy hayotda voqe bo'lishining, faoliyat ko'rsatishining asosiy shakli.	Multimediali taqdimotlar yaratish
9	G'arb ilm-fanida ma'naviyat va iqtisodiyot munosabati.	Taqdimot yaratish, glossari tuzish
10	Ma'naviyat va iqtisodiyot munosabatlari tizimida mehnatning o'rni.	Referat (glossariy tuzish, test)

Izoh: Talabalar mustaqil ta'lim mavzularini tayyorlash shakli bo'yicha tayyorlaydilar.

6- topshiriq.

Mavzu bo'yicha test savollariga javob bering.

Eng qadimgi mif va afsonalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima, Gershasp, Elbek
- B) Xubbi, Jamshid, Shiroq, Zarina, Alp Erto'nga
- C) To'maris, Rustam, Siyovush, Yusuf va Zulayxo
- D) Tohir va Zuhra, Yoriltosh, Go'ro'g'li, Alpomish

Sharq Uyg'onish davri qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?

- A) XII-XVII asrlarni 391
- B) IX – XV asrlarni
- C) XV – XVII asrlarni
- D) XIX asr oxiri XX asr boshlarini

Qadimgi turkiy tosh bitiklarida qaysi ma'naviy fazilatlar o'z ifodasini topgan?

- A) Ajdodlar xotirasiga ehtirom
- B) Jasorat va mardu maydonlik
- C) Ozodlik, erk uchun kurash
- D) El-yurt birligi, mustaqil davlatchilik, vatanparvarlik

Markaziy Osiyodagi ilk shahar ma'naviyatini aks ettiruvchi qadimiy manbaa bu...?

- A) Firdavsiyning "Shohnoma"si
- B) O'rxo'n-Enisey yodgorliklari
- C) "Avesto" kitobi
- D) Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari

Mamlakatimizda nechta milliy madaniy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda?

- A) 50 ta
- B) 80 ta
- C) 130 ta
- D) 180 ta

"Avesto" – so'zining ma'nosi qanday izohga ega?

- A) "Nasihatnoma"
- B) "Bilimlar majmuasi"
- C) "Qat'iy qonunlar"
- D) Hayot yo'riqnomasi

Seminar mashg'uloti

Mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq.

Mavzu: Ma'naviyat va inson tabiati Sharq va G'arb mutafakkirlarining inson tabiati to'g'risidagi qarashlari. Ma'naviyat va insonning hissiy hamda aqliy dunyosi Ma'naviy ongning ikki darajasi.

Reja:

1. Inson tabiati to'g'risidagi qarashlar.
2. Inson -extiyojlari yuksaluvchi mavjudot.
3. Ma'naviyat va insonning xissiy xamda akliy dunyosi.
4. Ma'naviy ongning ikki darajasi.
5. Tafakkur erkinligining inson ma'naviyatiga ta'siri.
6. Inson tabiatiga ekznstensialistik va boshqa postklassik yondashuvlar.

Izoh: Talabalar muammoni, uning kelib chiqish sabablari, oqibatlari va echimlarini yozadilar va uni og'zaki asoslab beradilar.

2- topshiriq

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

- V – bilaman
 + - men uchun yangi ma'lumot
 - - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi
 ? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

3. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
-----------------	---	---	---	---

3- topshiriq

FSMU texnologiyasidan foydalangan holda

Jadvalni to'ldiring

Savol	Inson -extiyohlari yuksaluvchi mavjudot.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

4- topshiriq

"Fikriy hujum"(Mozgovaya ataka) metodi.

Mazkur metod talabalarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'badlantrish hamda bir xil fikrlash. inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek ijodiy yazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yechishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. "Fikriy hujum" metodi A F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tanloyi - va sharti mashg'ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni jazolashdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metodda samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchimg pedagogik mahorati va tafakkur ko'laminig kengligiga bo'g'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida talabalarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin

5- topshiriq.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Tayyorlash shakli
1	Sharq va G'arb mutafakkirlarining inson tabiati to'g'risidagi qarashlari	Multimediali taqdimotlar yaratish
2	Tafakkur tushunchasining mohiyati.	Referat (glossariy tuzish, test)
3	Tafakkur erkinligining inson ma'naviyatiga ta'siri	taqdimot yaratish, glossari tuzish
4	Tafakkur erkinligining inson ma'naviyatiga ta'siri.	Multimediali taqdimotlar yaratish
5	Asotiriy tafakkur va ibtidoiy jamiyat ma'naviyati	Referat tayyorlash, taqdimot tayyorlash, test tuzish
6	An'anaviy tafakkur va agrar jamiyat ma'naviyati.	taqdimot yaratish, glossari tuzish

Izoh: Talabalar mustaqil ta'lim mavzularini tayyorlash shakli bo'yicha tayyorlaydilar.

Seminar mashg'uloti

Mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq.

Mavzu Tafakkurning tarixiy shakllari va ma'naviyat Turli yondashuvlardan kelib chiqqan holda tafakkurning har xil tasniflashi. E'tiqod va ma'naviyat. E'tiqod shaxs dunyoqarashi va ma'naviyati yadrosi sifatida

Reja:

1. Milliy ma'naviy qadriyatlarning mumtoz ko'rinishlari.
2. Vatan ozodligi, erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik ajdodlarimizning ma'naviy fazilatlari ekanligi.
3. Din – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi.
4. Islom dini. Qur'oni Karim.
5. Hadislarda inson ma'naviyati.
6. E'tiqod va ma'naviyat

Izoh: Talabalar muammoni, uning kelib chiqish sabablari, oqibatlari va echimlarini yozadilar va uni og'zaki asoslab beradilar.


2- topshiriq

E'tiqod tushunchasini tashkil etuvchi omillarning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati. FSMU texnologiyasi yordamida izohlab bering.

Savol	
-------	--

(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3- topshiriq:
“Klaster” usuldan foydalangan holda Milliy ma’naviyatning takomil bosqichlarini izohlab bering.





4- topshiriq:

1-guruhga:

“Qur‘oni Karim” oyatlari va hadislar asosida “Qanday” organayzerini to‘ldiring.

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Qanday” ‘savoli orqali muammo hal qilinadi.





“Ota-onaga, qarindoshlarga, etimlarga, miskinlarga, yaqin qarindoshlarga, yon qo‘shnilarga, yonboshdagi sohiblarga, ko‘chada qolganlarga va qo‘lingizda mulk bo‘lganlarga yaxshilik qiling.”

“Qur‘oni Karim”. Niso surasi, 36-oyat.

“Qachonki sizga bir salomlashish ila salom berilsa, siz undan ko‘ra yaxshiroq alik oling yoki xuddi o‘zidek javob bering. Albatta Alloh har bir narsaning hisobini olguvchi zotdir.”

“Qur‘oni Karim”. Niso surasi, 86-oyat.

“Ota-onangizga yxshilik qiling... Fahsh-buzuq ishlarning oshkorasiga ham, maxfiysiga ham yaqinlashmang.”

“Qur‘oni Karim”. An‘om surasi, 151-oyat.

“Kim bir o‘yaxshilik qilsa, unga o‘n barobar qaytarilur. Kim bir yomonlik qilsa, unga faqat qilganiga yarasha jazo bo‘lur.”

“Qur‘oni Karim”. A‘rof surasi, 160-oyat.

Omonat qo‘ygan kishining omonatini o‘z vaqtida ado eting;
Haqqingizga xiyonat qilgan kishiga siz xiyonat qilmang;

(Hadisdan)


2-guruhga:

“Qur‘oni Karim” oyatlari va hadislar asosida “Qanday” organayzerini to‘ldiring.

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Qanday” ‘savoli orqali muammo hal qilinadi.

Qur‘oni Karim va hadisi shariflarda inson ma‘naviyatini rivojlantirishga qaratilgan qanday g‘oyalar yoritilgan?

Qanday?



“Munofiq erkaklar va munofiq ayollar hammalari birdurlar, yomonlikka buyururlar, yaxshilikdan qaytarurlar... Ular munofiqlar-ular fosiqlardir.”

“Qur‘oni Karim”. Tovba surasi, 160-oyat.

“Mo‘min erkaklar va mo‘mina ayollar bir-birlariga do‘stdirlar. Ular yaxshilikka buyururlar, yomonlikdan qaytarurlar, nomozni to‘kis ado eturlar, zakotni berurlar hamda Allohga va uning rasuliga itoat qilurlar. Ana o‘shalarga Alloh tezda rahm qilur...”

“Qur‘oni Karim”. Tovba surasi, 71-oyat.

“Erkagu ayol, kim mo‘min hoida yaxshi amal qilsa, biz unga yaxshi hayot kechirtiramiz va albatta ularni qilib yurgan amallarining eng go‘zaliga beriladigan ajr ila mukofotlaymiz”

“Qur‘oni Karim”. Nahl surasi, 97-oyat.

“Yetimning moliga, toki u balog‘at yoshiga yetguncha yaqinlashmanglar. Magar yaxshilik ila bo‘lsa mayli, Ahdga vafo qilinglar. Albatta, ahd mas‘ul bo‘lgan ishdir.”

“Qur‘oni Karim”. Isro surasi, 34-oyat.

O‘zimdand keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo‘rqaman:

1. Nafsu havoga berilib, yo‘ldan ozishdan;
2. Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishidan;
3. Ilmu ma‘rifatga ega bo‘la turib g‘ofillarning ishini tutishidan;

(Hadisdan)

Beshta narsadan oldin beshta narsani g‘animat biling:

O‘limdand avval tiriklikni, betoblikdand avval salomatlikni, bandlikdand avval bo‘sh vaqtni, keksalikdand avval yoshlikni, faqirlikdand oldin boylikni.


(Hadisdan)

Qachonki bir gunoh qilib qo‘ysangiz, uni yuvish uchun orqasidan bir savobli ish qiling.

3-guruhga:

“Qur‘oni Karim” oyatlari va hadislar asosida “Qanday” organayzerini to‘ldiring.

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Qanday” ‘savoli orqali muammo hal qilinadi.



“Albatta iymon keltirganlar va solih amallarni qilganlar, ana o‘shalar xaloyiqning eng yaxshisidir.”

“Qur‘oni Karim”. Baayni surasi, 98-oyat.

“Albatta iymon keltirgan va solih amallarni qilganlarga daraxtlar ostidan anhorlar oqib turgan jannat bor. Bu esa nihoyatda ulkan yutuqdir.”

“Qur‘oni Karim”. Buruj surasi, 85-oyat.

“Bir jon boshqa jondan hech narsani ado qila olmaydigan, undan shafolat qabul qilinmaydigan, undan to‘lov olinmaydigan va ularga yordam berilmaydigan kundan qo‘rqing..”

“Qur‘oni Karim”. Albasa surasi, 123-oyat.

“Albatta, bu Qur‘on eng to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qilur va yaxshi amallarni qiluvchi mo‘minlarga, albatta, o‘shalarga ulug‘ ajr borligi xushxabarini berur.”

“Qur‘oni Karim”. Isro surasi, 9-oyat.

Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so‘ng esa otangga yaxshilik qil.

(Hadisdan)

Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisini, yoki biri bo‘lmaganda boshqasini rozi qilib jannatiy bo‘lib olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va yana xor bo‘lsin.

(Hadisdan)


Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdur.

(Hadisdan)

4- topshiriq:

Tasavvuf ta‘limoti namoyondalaridan kimlarni bilasizq

(Archa metodi)



5- topshiriq:

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy ma‘naviyatning takomil bosqichlari deganda nimani tushunasiz?
2. Inson ma‘naviyatining shakllanishida “Qur‘oni Karim” qanday ahamiyatga ega ?
3. Islom dinida inson ma‘naviyatini rivojlantiruvchi qanday g‘oyalar, fikrlar mavjud?
4. Tasavvuf ta‘limoti qanday ta‘limot?
5. O‘rta Osiyolik ulug‘ allomalardan kimlarni bilasiz?
6. “Dil bayoru dast ba kor” iborasini izohlab bering.
7. E‘tiqod va ma‘naviyat
8. Iroda ma‘naviyatning mavjudlik shakli sifatida

	ustuvor yo‘nalishi sifatida.	taqdimotlar yaratish
2	O‘zbekistonda ma‘naviyat va ma‘rifatni ko‘tarish, targ‘ib qilish.	Referat (glossariy tuzish, test)
3	Yangi O‘zbekiston-yangi ma‘naviy yuksalish.	taqdimot yaratish, glossari tuzish,

4	Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli.	Multimediali taqdimotlar yaratish
5	Ma'naviyat to'g'risidagi konsepsiyalar.	taqdimot yaratish,
6	Madaniyatning mavjudlik va namoyon bulish shakllari	Taqdimot, glossari tuzish,
7.	Oilaviy qadiriylatlarda ma'naviyat uyg'unligi.	Referat (glossariy tuzish, test)
8.	G'arb jamiyatida ma'naviyat tushunchasi.	Test (glossariy tuzish)

Izoh: Talabalar mustaqil ta'lim mavzularini tayyorlash shakli bo'yicha tayyorlaydilar

Glossariy

Ma'naviyat - inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir».

Millat- “o‘zak”, “tub mohiyat”, “negiz” degan ma'noni bildiradi. “Millat” so‘zi arab tilida quyidagi uch ma'noni anglatadi: birinchi - din, mazhab; ikkinchi - ummat; uchinchi - xalq, qavm.

Axloq - “xulqning ko‘pligi”, ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayan norma va qarashlar yig‘indisi.

Ma‘rifat - lug‘aviy ma‘nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma‘rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayonidir.

Madaniyat - bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy hayoti sohasida yaratgan, o‘zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan moddiy va ma‘naviy boyliklar tizimi

Qadriyatlar- voqeyalikdagi muayan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy-ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan falsafiy –sotsiologik va aksiologik tushuncha.

Ma‘naviy meros - madaniy merosning bir qismi bo‘lib, inson va jamiyat ma‘naviy taraqqiyoti, kelajagi uchun ahamiyatli bo‘lgan, avloddan-avlodga meros tariqasida o‘tib kelayotgan barcha boyliklar.

Mafkura- muayan davlat, jamiyat, millat, sinf va ijtimoiy guruhlar maqsad, muddaolarini o‘zida aks ettirgan, ularning huquqiy, falsafiy, badiiy, diniy g‘oya va qarashlarini amalga oshirish tizimi.

Bozor iqtisodi - bozorga xos munosabatlarni o‘zida aks ettirgan iqtisod bo‘lib, mumkin qadar ko‘proq va mumkin qadar sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish orqali odamlarning moddiy ehtiyojini qondirish va moddiy manfaatdor bo‘lish.

Milliy ma‘naviyat- muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo‘lgan g‘oyat qimmatli ma‘naviy boyliklardir. Masalan, o‘zbek millatiga xos ma‘naviy boyliklar.

Mintaqaviy (regional) ma‘naviyat- muayyan jug‘rofiy mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiy bo‘lgan ma‘naviy boyliklardir.

Siyosat - yunoncha so‘z bo‘lib, mazmuni davlat yoki jamoat ishlarini anglatadi. Siyosat – katta ijtimoiy guruhlar, millatlar, davlatlar ichki va tashqi munosabatlari sohasidagi faoliyatni anglatadi.

Hokimiyat -alohida shaxs, guruh, odamlar, tashkilot, siyosiy partiya, davlatning ijtimoiy hamkorligida boshqa ishtirokchilariga kuch ishlatish yoki kuch ishlatmaslik vositalari va uslublari yordamida o‘z irodasini o‘tkazish va ularning harakatlarini boshqarishni anglatadi.

Moddiy madaniyat - mehnat qurollarini, mehnat ko‘nikmalarini, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan inson tomonidanyaratilgan barcha moddiy boyliklar.

Umuminsoniy ma‘naviyat - butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo‘lgan ma‘naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma‘naviyat uzoq va yaqin o‘tmishda va hozirda juda qimmatli, inson qalbida o‘chmas iz qoldiradigan, mangu ashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo‘llaydigan ma‘naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma‘naviy oyliklariga ilm-fan, jumladan falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot va san‘at asarlari, kashfiyot va ixtirolar, ma‘naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlilik, umuminsoniy axloqiy

meʻyorlar va boshqalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: Oʻzbekiston, 2021.
2. Oʻzbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisidagi qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 26-mart 2021-yilgi PQ-5040- sonli Qarori.<https://lex.uz/docs/5344692>.
4. “Maʼnaviyat kerakmi - yoʻqmi deb yurganlar ham yoʻq emas”. Prezident Shavkat Mirziyoyev maʼnaviyat masalalariga bagʻishlangan nutq. 2021-yil 20-yanvar.

<https://kun.uz/news/2021/01/20/prezident-manaviyat-kerakmi-yoqmi-deb-yurganlarham-yoq-emas>.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M., Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 308 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
8. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
9. Erkayev A. “Ma‘naviyatshunoslik”. I-jild. Ma‘naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi Monografiya. - Toshkent: Ma‘naviyat, 2018.
10. Erkayev A. Ma‘naviyatshunoslik. II- jild. Ma‘naviyat metodologiyasi va praktsiologiyasi Monografiya. - Toshkent: Ma‘naviyat, 2018
11. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas‘uliyati.– Toshkent: O‘zbekiston, 2018, – 73 b
12. Masharipova G.K. Xorazm Ma‘mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma‘naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta‘siri. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2019.
13. Imomnazarov M. Milliy ma‘naviyatimiz asoslari. O‘quv qo‘ll. - Tashkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2006
14. Safarboev M. Ma‘mun akademiyasi va uning jahon ilm-fani taraqqiyotidagi o‘rni. – Urganch: UrDU nashirlik bo‘limi, 2006.
15. Ibrohimov A. Ma‘mun akademiyasi. –T.: A.Navoiy nomidagi O‘zMK nashriyoti, 2005.
16. Bulgakov P.G. Jizn i trudy Beruni. –T.: Fan, 1972. 12
17. Ahmedov A., Masharipova G. Xorazm Ma‘mun akademiyasining tashkil qilinishi// Tarixiy farmonga – 5 yil. –Xiva: XMA nashriyoti, 2002.
18. Ibrohimov A. Ma‘mun akademiyasi. –T.: A.Navoiy nomidagi O‘zMK nashriyoti, 2005.
19. Elmurodov I.K. Yoqut al-Hamaviyning “Mu‘jam al-udabo” asari X-XII asrlar Xorazm ilm-fani va adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim manba. Nom.diss. avtoref. –T.: 2002.
20. Shayx Najmiddin Kubro qissasi yoxud Xorazm tarixi. –T.: Istiqlol, 2017. 18.
- Bunyodov Z. Anushtagin xorazmshohlar davlati. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1998.